

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
qarori

**Avtomobil yo‘llari xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash  
to‘g‘risida**

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, avtomobil yo‘llari xavfsizligiga qo‘yiladigan yagona talablarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. “Avtomobil yo‘llarining xavfsizligi to‘g‘risida texnik reglament” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda tasdiqlangan ushbu Texnik reglamentning maqsadlari, mazmun va mohiyati hamda uni qo‘llash tartibi to‘g‘risida aholi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini keng xabardor qilinishini ta’minlasin.

3. Texnik reglament rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab olti oy o‘tgandan keyin amalga kiritilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.J. Ramatov va O‘zbekiston Respublikasi Transport vaziri I.R. Maxkamov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**

**A. Aripov**

## Avtomobil yo'llarining xavfsizligi to'g'risida TEXNIK REGLAMENT

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-§. Maqsadi va qo'llash sohasi

1. Ushbu texnik reglament (keyingi o'rnlarda — reglament) avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida quyidagilarni ta'minlash maqsadida qabul qilinadi:

- a) fuqarolarning hayotini va salomatligini muhofaza qilish;
- b) atrof-muhitni, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish;
- c) iste'molchilarini chalg'itadigan harakatlarning oldini olish;
- d) energiya jihatdan samaradorlikni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

2. Reglament avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish jarayonlari uchun zarur bo'lgan minimal xavfsizlik talablarini, shuningdek, ular ushbu talablarga muvofiqligini baholash shakllari va tartibini belgilaydi.

3. Reglamentning texnik jihatdan tartibga solish obyektlari - avtomobil yo'llari va ulardagi sun'iy inshootlarni jihozlash va harakat xavfsizligiga doir elementlar, shuningdek, avtomobil yo'llari bilan bog'liq tadqiqot o'tkazish ishlari, diagnostika qilish, qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish ishlari hamda yo'l qurilish materiallari hisoblanadi, yo'l servis obyektlari uchun faqat ularning joylashushi tartibga solinadi.

4. Mazkur reglamentning talablari vaqtinchalik foydalanish uchun mo'ljallangan yo'llarga, idoraviy yo'llarga, maxsus hududlarda joylashgan va mudofaa ehtiyojlari uchun yoki faqat sport maqsadlari uchun barpo etiladigan avtomobil yo'llariga, loyihalash, qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish jarayonlariga taalluqli emas.

5. Avtomobil yo'li yer usti transport tizimlarida foydalanish uchun jihozlangan yoki moslashtirilgan va yer ustidagi transport vositalari harakatlanishi uchun foydalaniladigan yoki sun'iy inshoot yuzasi bo'lgan obyekt sifatida vizual aniqlanadi.

6. Reglamentni qo'llash uchun avtomobil yo'llari texnik toifalari bo'yicha quyidagi xususiyatlarga asosan identifikatsiyalanadi:

- a) transport vositalarining harakatlanish imkoniyatlari shartlari bo‘yicha;
- b) harakat tasmalari soni va kengligi bo‘yicha;
- c) yo‘lda ajratuvchi tasma mavjudligi bo‘yicha;
- d) boshqa avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, tramvay yo‘llari, velosiped va piyodalar yo‘llari bilan kesishish turlari bo‘yicha.

7. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ahamiyati bo‘yicha hududlar va aholi punktlari nomlanishidan kelib chiqib, indeksi va tartib raqami bilan nomlanishi kerak.

Xalqaro transport tarmog‘ining bir qismi bo‘lgan avtomobil yo‘llarining nomlari va identifikatsiya raqamlari xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

## **2-§. Atamalar va ta’riflar**

8. Ushbu reglamentda quyidagi atama va ularning ta’riflari ishlataladi:

**avtomobil yo‘li** — transport vositalarining belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ajratilgan mintaqada joylashgan er uchastkasi va uning usti yoki ostidagi konstruktiv elementlari (yo‘l to‘shamasi, yo‘l qoplamasi va boshqalar), yo‘l inshootlari hamda yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalaridan iborat transport infratuzilmasi obyekti;

**avtomobil yo‘lining diagnostikasi** (texnik holatini baholash) — avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya sifatlarini, ta’mirlash maqsadga muvofiqligini aniqlash maqsadida avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlari elementlarini nazorat qilish, sinash, tahlil qilish va baholashni o‘z ichiga oladigan jarayon;

**avtomobil yo‘lining hayot sikli** — qurilish va ta’mirlashni o‘z ichiga olgan avtomobil yo‘lini loyihalashtirish paytidan boshlab uni utilizatsiya qilish (tugatish)gacha bo‘lgan jarayonlar majmui amalga oshiriladigan vaqt davri;

**avtomobil yo‘llarini saqlash** — avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlari elementlarini soz holatda saqlash, shuningdek, avtomobil yo‘lining butun uzunligida yil davomida bajariladigan avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarining texnik qurilmalari ish rejimlarini ta’minalash, yo‘l, yo‘l inshootlari va ajratilgan mintaqada qarov ishlarini amalga oshirish, avtomobil yo‘li, yo‘l to‘shamasi va elementlarida doimiy ravishda paydo bo‘ladigan mayda shikastlanishlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, harakat xavfsizligini tashkil etish va ta’minalash, shuningdek avtomobil yo‘llarini qishda saqlash va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha kompleks tadbirlar;

**avtomobil yo‘lini qurish** — texnologik, infratuzilma va boshqaruv jarayonlar majmuasi;

**avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish** — avtomobil yo‘llarining ayrim uchastkalarining reja va bo‘ylama profillarini o‘zgartirish, yo‘l poyi, yo‘l

to'shamasi, yo'l inshootlarini qayta qurish orqali uning toifasini yuqori toifaga o'tkazish, bunda avtomobil yo'lining parametrlari va xususiyatlarini ortib borayotgan va istiqboldagi harakat jadalligiga moslashtirish, avtomobil yo'li va yo'l inshootlarining iste'mol xossalalarini me'yor talablariga etkazish;

**avtomobil yo'llarini ta'mirlash** — avtomobil yo'llari hamda sun'iy inshootlarining ishonchligi va qulayligini ta'minlashga qaratilgan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilash, yo'l konstruksiyalari va inshootlarining ish imkoniyatini oshirish, ta'mirtalab yo'l elementlarini almashtirish, zarur hollarda ta'mirlanayotgan avtomobil yo'li uchun belgilangan toifaga to'g'ri keladigan harakat jadalligi va avtomobillar o'qiga tushadigan og'irliklar o'sib borishini hisobga olgan holda, avtomobil yo'lining ayrim uchastkalarini geometrik parametrlarini oshirish bilan bog'liq kompleks tadbirlar;

**avtomobil yo'lini ekspluatatsiya qilish** — avtomobil yo'lidan belgilangan maqsadda xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan avtomobil yo'lini ta'mirlash va saqlash majmuasi;

**avtomobil yo'lining transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlari** — kuzatuv vaqtida yo'lning texnik darajasi va ekspluatatsion holati parametrlarining haqiqiy qiymatlari majmuasi;

**avtomobil yo'lining toifasi** — avtomobil yo'lining texnik parametrlarini aniqlaydigan tavsif;

**avtomobil yo'llarini loyihalash** — iqtisodiy hisob-kitoblar majmuasidan iborat bo'lgan va muhandis tadqiqot materiallari asosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;

**ajratilgan mintqa** — avtomobil yo'li, uning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek avtomobil yo'lidan foydalanish uchun zarur bo'lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan er uchastkasi;

**ajratuvchi tasma** — transport oqimlarini yo'nalishlar yoki harakatlanish tarkibi bo'yicha bo'luvchi yo'lning tarkibiy elementi;

**bajarilgan ishlarni qabul qilish** — yakunlangan ishlarning loyiha hujjatlariga muvofiqlik ko'rsatkichlarini aniqlash va baholash jarayonlari to'plami;

**dam olish maydoni** — haydovchilar va yo'lovchilarning qisqa muddatli dam olishlari, transport vositalari va yuklarning holatini tekshirish, kichik nosozliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan yo'lni jihozlash elementi;

**yestaricha ko'rinishmaslik** — yomg'ir, qor yog'ishi, tuman tushishi va shunga o'xshash sharoitlarda, shuningdek kunning g'ira-shira vaqtida yo'lning ko'rinish masofasi 300 metrdan kam bo'lishi;

**jihozlash elementlari** — yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish va ta’minlash uchun mo‘ljallangan texnik vositalar va moslamalar, xizmat ko‘rsatish binolari va inshootlar majmuasi;

**katta hajmli transport vositasi** — balandligi, kengligi yoki uzunligi bo‘yicha gabaritlari ruxsat etilgan qiymatlardan oshib ketadigan yukli yoki yuksiz transport vositasi;

**nogironligi bo‘lgan yo‘l harakati ishtirokchilari** — mustaqil ravishda harakat qilishda, xizmat olishda, zarur axborot olishda yoki harakatlanishda mo‘jal olishga qiynaladigan yo‘l harakati ishtirokchilari;

**yo‘l belgisi** — yo‘l harakati ishtirokchilarini yo‘l holati va harakatlanish tartibi, aholi punktlari va boshqa obyektlarning joylashuvi to‘g‘risida xabardor qiluvchi belgilari bilan harakatlanish vositalarini tashkillashtirishning texnik vositasi;

**yo‘l yoqasi** — yo‘lning qatnov qismiga u bilan bir sathda bevosita tutashgan, qoplama turi bilan farq qiladigan yoki 1.1 yo‘l chizig‘i yordamida ajratilgan, belgilangan tartibda harakatlanish, to‘xtash va to‘xtab turish uchun mo‘ljallangan bo‘lagi;

**yo‘l inshootlari** — yo‘lning elementlari bo‘lgan sun‘iy yo‘l inshootlari, yo‘l himoya inshootlari va yo‘llarni jihozlash elementlari;

**yo‘l poyi** — avtomobil yo‘li hamda harakatni tashkil etish va boshqarish texnik vositalarini joylashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan konstruktiv element.

**yo‘l servis obyektlari** — yo‘nalish bo‘ylab yo‘ldan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar (gaz stansiyalari, avtomobil yonilg‘i quyish shoxobchalari, avtommobilarni elektr quvvatlantirish stansiyalari, avtobus bekatlari, mehmonxonalar, lagerlar, motellar, ovqatlanish joylari, xizmat ko‘rsatish stansiyalari, shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur bo‘lgan dam olish va to‘xtash joylari);

**yo‘l to‘shamasi** — tashqi ta’sirlar (transport vositalari) dan yuklamani qabul qiluvchi va uni yerning grunt qatlamiga o‘tkazuvchi avtomobil yo‘lning konstruktiv elementi;

**yo‘l to‘sig‘i** — transport vositalarining harakatlanishi jarayonida qatnov qismi chegarasidan chiqish xavfi kamayishini ta’minlovchi, qarama-qarshi harakatlanayotgan transport vositalari hamda yo‘l chetida joylashgan to‘siq va inshootlar bilan to‘qnashuvni oldini olish maqsadida o‘rnataladigan, shuningdek, piyodalar, hayvonlar harakatini tartibga soluvchi, ularning avtomobil yo‘lining belgilanmagan qismida qatnov qismiga chiqishini oldini oluvchi yo‘l jihozlash elementi;

**yo‘l harakati xavfsizligi** — yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati;

**yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash** — yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini oldini olishga, ularning og‘ir oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat.

**yo‘l harakati** — yo‘l harakatini tashkil etishda yo‘llar doirasida transport vositalari va yo‘l harakati ishtirokchilari ishtirokida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmui;

**yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari** — yo‘l harakatini tashkil etish uchun mo‘ljallangan qurilmalar va inshootlar (yo‘l belgilar, harakatlanish tasmalari, svetoforlar, miltillovchi mayoqchalar, yo‘l chiziqlari, yo‘l ustunlari, yo‘l to‘sirlari, tezlikni cheklovchi qurilmalar, shlagbaumlar, xavfsizlik orolchalar, yo‘l harakatini avtomatik boshqarish tizimlari (vositalari), shuningdek boshqa qurilmalar va inshootlar);

**yo‘l chizig‘i** — yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘l uchastkasida harakatlanish shartlari, rejimlari va cheklovlar to‘g‘risida xabar beradigan avtomobil yo‘lining, sun‘iy inshootlar va yo‘l jihozlash elementlarining yuzasidagi gorizontal va vertikal chiziqlar;

**yo‘naltiruvchi moslamalar** — yo‘l harakati qatnashchilarini vizual mo‘ljal olishi uchun qo‘llaniladigan texnik vosita;

**konstruktiv element** — tashqi va ichki yuklarni qabul qiladigan va ularni boshqa konstruksiyalarga yoki asosga uzatib yuboradigan konstruksiya;

**qatnov qismi** — avtomobil yo‘lining relssiz transport vositalari harakati uchun mo‘ljallangan qismi;

**ko‘rinish masofasi** — yengil transport vositasining old qismidan masofa, bunda yo‘lning konstruktiv elementlari va harakat yo‘nalishidagi boshqa narsalar haydovchining o‘rindig‘idan ajralib turadi, bu transport vositasini muvofiq chiziqda haydashga imkon beradi;

**qurilish** (davlat, texnik, mualliflik, ichki) **nazorati** — avtomobil yo‘lini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash jarayonida amalga oshirilgan ishlarning loyiha hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalari, qurilish reglamentlari, standartlar va shaharsozlik hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan nazorat;

**oldiq xavf** — himoya choralarini qabul qilingandan keyingi holat;

**loyiha hujjatlari** — hajmiy-rejali, amaliy va texnikaviy yechimlarni, avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda ekspluatatsiya ishlarining qiymatini belgilaydigan hamda ishchi loyiha, loyiha-smeta hujjatlari va ishchi hujjatlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlar to‘plami;

**og‘ir vaznli transport vositasi** — har qanday vazn ko‘rsatkichlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari orqali harakatlanishi uchun belgilangan me’yoriy o‘lchovlardan vazni (umumiyl vazn va o‘qqa tushuvchi og‘irlik) ortiq bo‘lgan transport vositasi;

**svetofor** — yo‘l harakati ishtirokchilarining harakatini tartibga solish uchun ishlataladigan yorug‘lik-signal moslamasi;

**harakat jadalligi** — ma’lum vaqt (o‘rtacha bir soat yoki bir kecha-kunduz) oralig‘ida yo‘lning muayyan kesimidan o‘tadigan avtomobil va boshqa turdag‘i transport vositalari soni;

## **2-bob. Xavfsizlik talablari**

### **1-§. Avtomobil yo‘llari xavfsizligiga qo‘yiladigan umumiyl talablar**

9. Avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarining xavfsizligi transport vositalarining ruxsat etilgan og‘irligi va umumiyl parametrlari, xizmat ko‘rsatish muddati davomida elementlarning mustahkamligi, ishonchliligi va barqarorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularga rioya qilish orqali ta’milnadi.

10. Reglament zarar yetkazish xavfi darajasini hisobga olgan holda, avtomobil yo‘llariga qo‘yiladigan minimal talablarni belgilaydi. Talablar bajarilishiga avtomobil yo‘llarida tadqiqot o‘tkazish, diagnostika qilish, loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash jarayonida erishiladi.

11. Tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda respublikada tabiiy hodisalar oqibatida zarar ko‘rgan avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va boshqa yo‘l infratuzilmasi obyektlarini tiklash uchun zarur bo‘lgan kuch va vositalar doimiy shayligi ta’milnadi.

### **2-§. Tadqiqot o‘tkazish (izlanish)da qo‘yiladigan talablar**

12. Avtomobil yo‘llari va sun‘iy inshootlarda tadqiqot o‘tkazish (izlanish)da qurilish maydonining tabiiy-iqlim sharoitlari va atrof-muhitga texnogen ta’sir etuvchi omillar haqidagi materiallar, ularning o‘zgarishi prognozi ishonchli bo‘lishi kerak.

13. Topografik-geodezik, muhandislik-geologik, gidrologik, ekologik va boshqa turdag‘i izlanish materiallari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak. Jumladan,

a) yo‘l inshootlarining asoslari, poydevori va konstruksiyalari, ko‘priklar, quvurlar, yo‘l to‘shamasi va boshqa tarkibiy elementlar mustahkamligi va barqarorligini, shuningdek, avtomobil yo‘lining loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida xavfsizligi bilan bog‘liq boshqa tadbirlarni ishlab chiqish uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish;

b) avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash bosqichlarida avtomobil yo‘llari ishtirokchilarini sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo‘yicha muhandislik tadbirlarini ishlab chiqish.

### **3-§. Loyihalashga qo‘yiladigan talablar**

14. Avtomobil yo'llarini loyihalash loyiha topshirig'ining talablari, buyurtmachi tomonidan berilgan dastlabki ma'lumotlar va muhandislik tadqiqotlari materiallari asosida amalga oshiriladi.

15. Avtomobil yo'llarini loyihalashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

a) transport vositalari hamda piyodalarining mavjud va prognozlashtirilgan harakat tarkibi, harakat jadalligi, ruxsat etilgan harakat tezligi, umumiyo'chammlari va og'irlilik parametrlarini hisobga olgan holda xavfsiz va uzlusiz harakatlanishi;

b) avtomobil yo'li va yo'l inshootlari konstruktiv elementlarining hayot sikli barcha bosqichlarida tashqi va ichki yuklarning ta'siri ostida mustahkamligi va barqarorligi;

d) belgilangan avtomobil yo'lining hayot sikli jarayonida xavfli gidrometeorologik hodisalar, suv toshqinlari sodir bo'lganda suv o'tkazgichlar orqali xavfsiz o'tkazish va ularning ehtimoliy oshishini hisoblash;

e) avtomobil yo'lining hayot sikli davomida qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish;

f) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan transport infratuzilmasi obyektlariga qo'yiladigan estetik, iqtisodiy, ekologik va boshqa talablarga, shuningdek, madaniy-tarixiy meros yodgorliklari saqlanishini ta'minlash me'yorlari va qoidalariga rioya qilish;

g) portlovchi, yong'indan xavfli va boshqa ishlab chiqarish obyektlaridagi taqiqlangan (xavfli) hududlarga hamda loyihalashtirilgan avtomobil yo'li yonida joylashgan obyektlarning xavfsizlik zonalariga qo'yilgan minimal masofalarga rioya qilish;

h) atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, shu jumladan, tirband vaqtida avtomobillarning majburiy to'xtash vaqtini qisqartirish orqali zararli gazlar chiqindilarini kamaytirish;

qurilish jarayonida hosil bo'ladigan qurilish chiqindilari hajmlarini va ularni toplash joylarini belgilash, shuningdek, ular bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha loyihaviy yechimlarni nazarda tutish;

maishiy chiqindilarni toplash shoxobchalarini qurish joylarini aniq belgilash va ularni qurish, chiqindi qutilarini, shuningdek chiqindi yig'ish joyi bo'yicha yo'l belgilarini o'rnatishni nazarda tutish;

i) O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonunida belgilangan yo'llarni qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida yo'l harakatini tashkil etish loyihalarining auditini o'tkazish.

16. Tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq xavflarni istisno qilishning iloji bo'lmagan joylarda avtomobil yo'llarini loyihalashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- a) avtomobil yo‘lining trassasini ko‘rsatilgan xavflar minimal bo‘lgan yer uchastkalari bo‘ylab o‘tkazish;
- b) qurilish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida yo‘lning konstruktiv elementlarini sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan himoya qilishni ta’minlash;
- d) tabiiy yoki texnogen jarayonlar va hodisalar ta’sir etganda xavf paydo bo‘lish ehtimolini bartaraf qiladigan yoki kamaytiradigan materiallar va konstruksiyalarni qo‘llash.

17. Avtomobil yo‘llari konstruksiyalari va yo‘l inshootlari poydevorlarini hisoblashda doimiy va vaqtinchalik ta’sir qiluvchi yuklamalarning quyidagi asosiy turlari hisobga olinishi kerak:

- a) avtomobil yo‘li va yo‘l inshootlari konstruktiv elementlarining vazni;
- b) transport vositalari va piyodalar;
- d) suv oqimining ta’siri, shu jumladan to‘lqin va muz yuklamalari;
- e) shamol va yog‘ingarchilik ta’siri;
- f) seysmik ta’sirlar;
- g) harorat ta’siri;
- h) poydevorlarning cho‘kmalari, konstruktiv elementlar materialining qisqarishi va yemirilishi;
- i) qurilish-montaj, texnologik va ekspluatatsiya uskunalari.

18. Avtomobil yo‘li trassasiga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari:

- a) rejaning geometrik elementlari, bo‘ylama va ko‘ndalang profillar parametrlari avtomobil yo‘lining texnik toifasi uchun qabul qilingan hisoblangan tezligidan kelib chiqib belgilanishi kerak;
- b) rejadagi va bo‘ylama profilda avtomobil yo‘lini loyihalash, bir-biri va atrofdagi landshaft bilan uyg‘unlashgan fazoviy egri chiziq sifatida amalga oshishi talab etiladi;
- e) Bo‘ylama qiyalik avtomobil yo‘llarning toifalari va harakatlanish sharoitlari transport vositalarining ruxsat etilgan tezligida xavfsiz harakatlanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Avtomobil yo‘lining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini va yo‘l harakati xavfsizligini oshirish uchun cheklangan bo‘ylama qiyaliklarni qo‘llash zarur bo‘lsa, qo‘srimcha yo‘llar va falokatli holatlar uchun kirish yo‘li ta’minlanadi.;
- f) rejada va bo‘ylama profilda trassa elementlarining kombinatsiyasi avtomobil yo‘li yo‘nalishida masofadan aniq ko‘rinishi kerak, bunda ruxsat etilgan tezlikda xavfsiz va qulay harakat ta’minlanadi, haydovchilarni transport yo‘nalishini o‘zgartirish, transport vositasini boshqarishda ko‘proq e’tibor talab qiladigan joylarga yaqinlashishi haqida o‘z vaqtida xabardor qilish imkoniyati yaratiladi;

d) reja va bo‘ylama profil parametrlari avtomobil yo‘llarining tegishli toifalari uchun belgilangan masofada qatnov qismi hamda qarshidan kelayotgan transport vositasining ko‘rinishini ta’minlashi kerak;

g) Rejadagi egrilik vizual trassa tekisligini ta’minlashi va uni atrofdagi landshaft bilan bog‘lashi kerak. Trassa doimiy yoki o‘zgaruvchan egrilikka ega bo‘lishi mumkin. Egrilikning eng kichik radiuslari harakatning qulayligi hamda tor sharoitlarda quruq va nam qoplama yuzasida hisoblangan tezlikda harakatlanayotganda avtomobilning barqarorligi asosida belgilanishi kerak. Rejadagi qo‘sni egrilik radiuslari bir-biridan 1,3 martadan ortiq farq qilmasligi talab etiladi.

19. Avtomobil yo‘lining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun harakatni tashkil etish texnik vositalari me’yor talabi asosida to‘liq jihozlangan bo‘lishi kerak.

20. Harakatlanish tasmalarining kengligi barcha toifadagi avtomobil yo‘llari, shuningdek, transport vositalarining turlari uchun muayyan yo‘l sharoitlarida yo‘l harakati tezligini xavfsiz amalga oshirish imkoniyatini ta’minlagan holda loyihalanadi.

21. Barcha toifadagi avtomobil yo‘llarining yo‘l yoqasi me’yor talabi asosida quyidagilarni ta’minlaydigan kenglikda bo‘lishi kerak:

- a) yo‘l poyi konstruksiyasi barqarorligi;
- b) yo‘l-transport hodisalari og‘ir oqibatlarining oldini olish maydonini yaratish;
- c) transport vositalarining ruxsat etilgan tezlikda harakatlanishini ta’minlash;
- d) transport oqimining harakatlanishiga to‘sinqilik qilmasdan tegishli toifadagi yo‘llarning qatnov qismidan tashqarida transport vositalarini qisqa muddatli to‘xtash imkoniyatini yaratish;
- e) yo‘l bo‘ylab ekilishi rejalshtirilgan daraxtlarning shox-shabalari harakatni tashkil etish texnik vositalarining ko‘rinishiga xalaqtি bermasligi.

22. Avtomobil yo‘llarida yo‘lning toifasiga, to‘xtash joylari taqiqlangan boshqa avtomobil yo‘llarining uchastkalariga qarab, avtombillarni favqulodda to‘xtatish uchun mo‘ljallangan maydonlar loyihalashtirilishi kerak. Bunda, maydonlar kelajakda prognozlashtirilgan transport vositalari harakat jadalligidan kelib chiqib, yetarli hajm (transport vositalari sig‘imi)ga ega bo‘lishi kerak. Maydonlar o‘tish-tezlanish tasmalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak va ular orasidagi masofalar harakat jadalligiga qarab belgilanadi.

23. Transport vositalarining harakatlanish xavfsizligini ta’minlash uchun davomli tik nishablikdan tushishda, harakatlanayotgan transport vositalarining harakat tasmasi bo‘ylab, belgilangan oraliqda favqulodda holatlarda majburiy to‘xtash joylari bo‘lishi kerak.

24. Tegishli texnik toifadagi avtomobil yo‘llari, transport vositasining qarama-qarshi chiziqqa kirishiga yo‘l qo‘ymaslik va qarama-qarshi to‘qnashuv xavfini

kamaytirish uchun, bo‘linish chizig‘iga ega bo‘lishi yoki harakatning har bir yo‘nalishi uchun mustaqil yo‘l poyida loyihalashtirilishi kerak. Yo‘lning toifasiga qarab bo‘linadigan chiziqning minimal kengligi xavfsizlik yo‘llarini joylashtirish va yo‘l to‘siqlarini o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan o‘lchamlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

25. Qatnov qismining ko‘ndalang qiyaligi va avtomobil yo‘llarining mustahkamlanmagan qismi yer usti suvlari oqib ketishini ta’minlashi kerak.

26. Avtomobil yo‘lining loyihaviy hujjatlarida qabul qilingan yo‘l qoplamasining konstruksiya turi va yuk ko‘tarish qobiliyati O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan transport vositalarining zamonaviy vazn ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda har xil toifadagi yo‘llarda ruxsat etilgan tezlik bilan belgilangan harakat jadalligi va tarkibdagi transport oqimlarining xavfsiz va uzuksiz o‘tishi talablariga javob berishi kerak. Yo‘l qoplamalarining ravnligi va ilashish ko‘rsatkichlari transport vositalarining har xil toifadagi yo‘llarda ruxsat etilgan tezlikda xavfsiz harakatlanish talablariga javob bergen holda loyihalanadi.

27. Avtomobil yo‘llarini loyihalashda yo‘l to‘siqlarini yo‘l-transport hodisalari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan quyidagi xavfli joylarda o‘rnatish ko‘zda tutilishi kerak:

a) ko‘tarmalar va (yoki) yo‘l poyining tik qiyaligi bilan avtomobil yo‘li uchastkalarida, shuningdek, temir yo‘llar, botqoqlar, jarliklar, suv oqimlari, tog‘ daralari va yonbag‘rlari yaqin joylashganda;

b) avtomagistrallarda va yuqori tezlikka mo‘jallangan yo‘llarda, ko‘p tasmali yo‘llarning ajratuvchi tasmasida, yetarlicha ko‘rinish imkoniyati kam bo‘lgan egri chiziqlarda, serqatnov avtomobil yo‘llari bo‘yida joylashgan mакtablar oldida;

d) ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar, estakada va boshqa maxsus yo‘l inshootlaridan o‘tuvchi uchastkalarda;

e) yo‘l o‘tkazgichlar, elektr uzatish liniyalari, aloqa, yoritish, shuningdek, qatnov qismiga yaqin joylashgan boshqa kommunikatsiyalar va inshootlar ustunlarida.

28. Aholi punktlaridan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarini loyihalashda trotuarlar, zarur hollarda velosiped yo‘llari ko‘zda tutilishi kerak. Zarur hollarda qurish yoki rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan avtomobil yo‘llari bo‘ylab aholi punktlaridan tashqarida piyodalar va velosiped yo‘llari loyihalanishi mumkin. Shu bilan birga, ruxsat etilgan tezlik, harakat tarkibiga, shuningdek, velosiped va avtomobil harakatini ajratish usullariga qarab, bitta qatnov qismida velosiped va avtomobillar harakatini birgalikda tashkil etishga ruxsat beriladi.

29. Yangi qurilayotgan avtomobil yo‘llarini loyihalashda yoki mavjud avtomobil yo‘llari tarmog‘ida sun‘iy yoritish moslamalarini o‘rnatishda birinchi navbatda quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

a) aholi punktlari chegarasida;

- b) magistral yo‘llarning o‘zaro va temir yo‘llar bilan kesishmalarida;
- d) uzunligi 100 m dan ortiq ko‘prik, yo‘l o‘tkazgich va estakadalarda;
- e) pullik avtomobil yo‘llari uchun to‘lov postlarida;
- g) tunnellar va ularga kirish qismida;
- h) yo‘l va yo‘l bo‘yidagi servis obyektlariga va boshqa inshootlarga kirishda;
- i) transport va vazn nazorati, chegara, bojxona, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va yo‘l-patrul xizmati postlarida;
- j) piyodalar o‘tish joylarida.

30. Avtomobil yo‘llarini loyihalashda yo‘l harakati ishtirokchilarini qisqa muddatli dam olish uchun alohida joylar inobatga olinishi kerak.

31. Avtomobil yo‘llarini loyihalashda jamoat transporti to‘xtash joylarida yo‘lovchilar tushish va chiqish maydonchalari hamda pavilonlar bo‘lishi talab etiladi.

32. Yo‘l va yo‘l bo‘yi servis obyektlariga kirishni ta’minlovchi rejaviy elementlar va avtomobil yo‘lining bo‘ylama profili parametrlarini loyihalashda ularning joylashgan joyidagi yo‘l sharoitlari yomonlashmasligi va harakatini xavfsizligini kamaytiradigan qiyinchiliklar bo‘lishiga ruxsat etilmaydi.

33. Loyihalashtirilayotgan avtomobil yo‘li yer osti muhandislik kommunikatsiyalari bilan kesishganda, ushbu kommunikatsiyalarning yuklamalar ta’siri ostida saqlanishini ta’minalash hamda kommunikatsiyalar uchun o‘rnatilgan xavfsizlik mintaqasiga rioya qilish lozim.

34. Yangi ko‘priklarni loyihalashda yoki mavjud ko‘priklarni rekonstruksiya qilish va ta’mirlashda loyihaviy yechimlar quyidagi omillarni ta’minalash kerak:

- a) umumiy o‘lchamlari va vazn parametrlari qonunchilik xujjalarda belgilangan talablarga javob beradigan transport vositalarining harakatlanishida inshootlarning ishonchliligi, chidamliligi va uzlusiz ishlashini;

- b) qurish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya davrida transport vositalari va piyodalar harakati, shuningdek, qurilish mashinalari, mexanizmlar, uskunalar, ishchilar xavfsizligi va mehnat muhofazasi xavfsizligini;

- c) oqim tezligi va suv sathi oshib ketishining hisobini;

- d) atrof-muhitni muhofaza qilish va uning ekologik muvozanatini saqlashni.

35. Avtomobil yo‘llarida ko‘prik inshootlarni loyihalash ushbu yo‘l qismida harakatning istiqbolli jadalligiga, shuningdek, transport vositalarining o‘lchamlari, og‘irlik parametrlariga muvofiq amalga oshiriladi.

36. Ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni loyihalashda quyidagilar ta’milanadi:

a) ko‘prik inshootlar va ularga kirish qismidagi qatnov qismining kengligi, avtomobil yo‘llari qatnov qismining kengligi va harakat tasmalari soni va xususiyatlari bilan mosligi;

b) kichik radiuslar bo‘yicha egriliklardagi ko‘prik inshootlarni joylashtirishda yo‘lning burilish va kengayishini hisobga olish;

v) metall to‘sqliar o‘rnatilganda, to‘sqliar bilan asos (devor) orasidagi masofa, transport vositasi bilan to‘qnashuv sodir bo‘lganda deformatsiya (bukilish)ni ta’minlashi lozim.

37. Tonnellarni loyihalashda quyidagi xavfsizlik talablariga rioya qilinadi:

a) 1000 m dan ortiq uzunlikdagi tonnellar transport vositalarini favqulodda to‘xtatish uchun joylar bilan kengayishlarga ega bo‘lishi kerak. Ikki tomonlama harakatlanishda maydonlar tonnelning har bir tomonida inobatga olinadi;

b) 1500 m dan ortiq uzunlikdagi tonnellarda har bir harakat tasmasida transport vositalarining harakat jadalligi 2000 dona/sutkadan ortiq bo‘lganda favqulodda chiqishlarni tashkil qilish kerak;

d) favqulodda chiqishlarga ega bo‘lmagan tonnellarda, favqulodda vaziyatlarda yo‘l ishtirokchilari uchun mo‘ljallangan trotuarlar yoki yo‘lakchalar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

e) alohida stvollar bilan tonnellar piyodalar o‘tish joyi va avariya-qutqaruva xizmatlari mashina va mexanizmlaridan o‘tish uchun mo‘ljallangan bir xil masofada joylashgan ko‘ndalang stvollarda bir-biriga ulangan bo‘lishi kerak;

f) uzunligi 1 500 m dan ortiq tonnellarda birinchi tibbiy yordam, favqulodda aloqa, yong‘in o‘chirish, texnik suv bilan jihozlangan, himoya xizmatlari ehtiyojlari uchun sanitariya-maishiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan maxsus xonalar nazarda tutilishi kerak;

g) tonnel foydalanuvchilari xavfsizligini ta’minlash uchun qurilmalar va vositalarning joylashuvi tegishli xavfsizlik belgilari bilan belgilanadi. Favqulodda chiqishlarga, qutqaruva punktlariga, favqulodda aloqa qurilmalariga harakatlanish yo‘nalishlari ko‘rinadigan yozuvlar va belgilar bilan belgilanadi. Zarur bo‘lganda, xavfsizlik belgilari favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun kerak bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin;

h) tirbandliklar, yo‘l-transport hodisalari va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun transport oqimlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan jihozlash inobatga olinadi;

i) tonnelga kirishdan oldin va undan chiqib ketgandan so‘ng, shuningdek, ikki yoki undan ortiq stvollli tonnellarda avtomobil va qutqaruva xizmatlari mexanizmlari uchun yo‘l to‘sqliari orasidagi bo‘shliq ta’minlanadi.

38. Avtomobil yo‘llarini loyihalashda avtotransport vositalarini umumiyl o‘lchovlarini va og‘irlilik vaznini nazorati punktlari va ular uchun alohida tasma,

shuningdek transport vositalarini saqlash uchun ixtisoslashtirilgan jarima maydonchalarni nazarda tutish mumkin.

39. Avtomobil yo'llari ko'priq-inshootlarga ruxsatsiz kirishni taqiqlovchi, yong'in, tumanga qarshi himoya va avtomatlashtirilgan yong'inni aniqlash va ogohlantirish bo'yicha maxsus muhandislik himoya tizimlari bilan jihozlanishi mumkin.

40. Loyihalashda aholining boshqa toifalari bilan teng imkoniyatlar cheklangan yo'l foydalanuvchilarining barcha toifalari uchun avtomobil yo'llari tomonidan taqdim etiladigan barcha turdag'i xizmatlardan foydalanish imkoniyati nazarda tutish talab etiladi.

41. Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda avtomobil yo'llarini loyihalashga qo'yiladigan talablar:

